https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Dilnoza Nishanova Xamidjon qizi

NamDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs magistranti,

nishanovadilnoza16@gmail.com

ABDULLA ORIPOV “SO`NGI SO`Z NIDOSI”

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripovning mustaqillikkacha bo`lgan va istiqlolga erishgandan keyingi hayot yo`li, ijodiy izlanishlari; o`y-kechinmalari, “yosh shoirlik” darajasidan “donishmand ijodkor” bo`lib yetishguncha bo`lgan davr voqealari hayot haqiqatlari asosida tahlil qilib beriladi.

Annotation. This article analyzes Abdulla Oripov`s life journey before independence and after achieving sovereignty, his pursuits, and reflections, from the stage of “young poet” to becoming a “wise creator”, based on life events and realities during that period.

Kalit so‘zlar: milliy an`ana va qadryatlar, ijtimoiy muhit, tushkunlik, ustoz va shogird munosabati, o`zlikni anglash, biografik hamda ijtimoiy – sotsial yondashuv, “Samoviy to`y”, madhiya, metodlar.

Keywords: national traditions and values, social environment, depression, relationship between mentor and disciple, self-awareness, biographical and social approach, “Celestial wedding”, panegyric, method.

Kirish. Abdulla Oripov umr yo`li va ijod ummoni nafaqat o`tgan asr farzandlari, balki bugungi yosh avlod uchun ham hayot maktabi bo`lib xizmat qila oladi. Ammo hozirgi zamon farzandlari adib hayoti – badiiyatini qay darajada biladi? Ijodkor shaxsini anglash uchun qanday choralar ko`rilmoqda, yoki muallif umr yakuni bilan uning liro-epik meroslari ham tuproqqa qorishib ketdimikin? Bu kabi savollarga javob topish uchun biz darsliklar, ustoz va o`quvchilarga murajaat qildik. Darsliklarni kuzatar ekanmiz, to`qqizinchi sinf eski darslikda A.Oripovning “Sohibqiron” dramasi; o`ninchi sinf adabiyot darsligida esa “Munojotni tinglab”, “Qo`riqxona”, “Yurtim shamoli”, “Birinchi muhabbatim” she`rlari mavjudligiga,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ammo boshqa darsliklarga kelganda tizimlilik buzilganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Demak, mustaqillikdan keyingi ma`lum bir davrda ijodkorning badiiy xazinasi o`quvchiga to`laqonli yetib kelmadimi? Yangilangan hozirgi davr adabiyot darsliklariga nazar tashlasak, beshinchis sinf darsligida A. Oripovning “Qushcha”, “Men nechun sevaman O`zbekistonni?”, “Miltiraydi mitti yulduz”, “Burgut”, “Tilla baliqcha” she`rlariga, shu bilan birga, bu darslikda Imom Buxoriy mavzusida muhaddisning hadislariga monand Abdulla ustozning “Haj daftari” dan olingan ijod namunalariga guvoh bo`lishimiz mumkin. “Haj daftari” ga kiritilgan she`rlar orqali ijodkorning yana bir o`ziga xos qirasini o`zimiz uchun kashf etishimiz aniq. Lekin bu darslikka kiritilgan ayrim she`rlar bola yoshiga mosmikin? Masalan, birgina “Tilla baliqcha” she`ri kichik sinflarda o`qitish orqali ijodkor aytmoqchi bo`lgan fikr mohiyatiga yetib borish uchun zamin yaratarmikin? Bu kabi lirikasi yuqori sinflarda o`qitilsa, maqsadga muvofiq bo`lar edi. Oltinchi, yettinchi sinfga borganda ijodkorning ayrim namunasi she`riy san`atlarni tushuntirish uchun berilgan. Boshqa sinflarda deyarli duch kelmaymiz. Yuqori sinf o`quvchilari esa yoshlikdagi bilimlari eskirishi natijasida A. Oripovni madhiya muallifi sifatida biladilar xolos. Ijodkor haqida hujjatli film ham olingan, ammo XXI asr o`quvchisi hujjatli filmlarga emas, qisqa metrajli kontentlarga qiziqadi. Bundan ko`rinadiki, biz ustozlar darsliklar bilan cheklanmay, bilim saviyamizni oshirishimiz, bu orqali o`quvchiga ota-bobolari, qadryatlarini, milliy til va adabiyoti yuksak eanligini anglatishimiz kerak. Bejiz abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon: “Adabiyot yashasa, millat yashaydi”,- deya ta`kidlamagan.

Metodlar. A. Oripov hayot yo`li va ijod manzaralarini tasvirlashda ko`plab metod, texnologiya hamda yondashuvlardan foydalanish samarali natija beradi. Bu metodlar tarkibiga “Mozaika” usuli, “Raqamlar” texnologiyasi, “So`z daraxti”, “Adabiy sayyora”, “Uzum pishdi, bog`ga kir” texnologiyasi va biografik, ijtimoiy-sotsial yondashuvlarni qamrab olishi mumkin. Bu kabi usullarning boshqa bir turlaridan ham foydalanish mavzuni ochib berishda, o`quvchilar ongiga yetib borishda yetakchilik qilishi mumkin. Har bir metodni adibimiz hayotiga solib

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ko`rib o`tadigan bo`lsak, dastlab, “Mozaika” usuliga to`xtalamiz. Bunda ijodkor portreti yoyinki ma`lum bir she`ri tasviri tushirilgan albom turli shakllarga bo`linadi va uning ortiga raqamli qiziqarli savollar yozish, o`quvchilar uarga javob berish barobarida bo`sh kataklarga shakllarga moslab joylashtiradilar. Natijada ijodkor tasviri yoki qaysidir asar yoki she`ridan badiiy lavha paydo bo`ladi. Bu vaziyatni kuzatgan kitobxon o`sha tasvirda aks etgan voqeylikni nutq so`zlash yo`li bilan tahlil qilib berishi talab etiladi. Bu metod darsning yangi mavzu qismida yoki o`tilganlarni takrorlash jarayonida qo`llash qo`l keladi.


MOZAIKA

		Abdulla Qahhor		
	Neko`z		“Qushcha”	
Xyuston				Dante
	Soka		Do`stlik	
		Kaliforniya		

Navbatdagi zamonaviy usullardan yana biri raqamlar texnologiyasi hisoblanadi. Bunda ijodkor hayotida yoki asarlarda uchraydigan raqamlar tasvirini aks ettirish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

orqali o`quvchi raqamlar vosidasida adib hayotini jonlantirib beradi. Masalan, 4 soni A. Oripov hayotidagi aka-opalari soniga ishora qilishini aytib berishi kerak.



“So`z daraxti” usuli bilan A. Oripov hayoti yoki ijodiga oid leksik birliklarni daraxtimizga joylashtirib chiqamiz. So`zlar o`quvchiga ko`rinmaydi. Ular so`zlarni daraxtdan olar ekan, u ijodkorning qaysi badiiy merosida yoki hayot tarzida duch kelganligini izohlab beradi. “Adabiy sayyora” metodida esa ijodkor portreti markazga yumaloq shaklga keltirib qo`yiladi. Uning asarlari nomi esa huddi shuday shakllarda katta – kichik (janrini inobatga olgan holda) ko`rinishda aks etgan bo`ladi. O`quvchilar uning mazmun mohiyati, qalblarga qay darajada yaqinligiga qarab ularni adib tasviri atrofiga joylashtirib chiqadilar.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



Bu zamonaviy usullarning bari o`quvchilarning mavzuni puxta o`zlashtirishlari, bugungi kun talabiga imkon qadar javob bera olishini, o`z so`zini jahonga ayta oladigan yetuk kadrlar bo`lib yetishishini, mustaqil fikrlay oladigan kitobxonni tarbiyalashni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi. Mana shunday vositalar nafaqat Abdulla domla ijodi, balki boshqa adabiyotimiz namoyondalarini o`rganishda ham qo`l keladi. Yana bu metodni quyidagi usulda tashkil etish mumkin:


“Uzum pishdi, bog`ga kir” bu o`yinni kichik guruhlarda o`ynash yaxshi samara beradi. Har bir guruh uchun “Uzum” maketi tarqatiladi. Uzum bargidagi topshiriqqa asosan uzum “pishiriladi”. (O`quvchilar uzum donalariga ijodkor hayotiga oid so`zlarni yozadilar.) Qaysi guruh topshiriqni to`g`riva tez bajarsa, shu guruh g`olib hisoblanadi. G`oliblar A. Oripov tasviri tushurilgan maxsus embelemalar bilan ham taqdirlash mumkin. Shunday holat ham ijodkor portretini o`quvchi yodida abadiy qolishiga sabab bo`lib xizmat qiladi.

“Uzum pishdi, bog`ga kir” metodi bilimlarni mustahkamlash qismida qo`llagan ma`qul. Boisi kitobxon ijodkor hayoti haqida yetarlicha bilimga ega bo`ladi. Bu metod xohishga ko`ra tasvir do`skaga yopishtirilgan holda o`quvchilardan A. Oripov hayoti, asarlaridan esda qolgan tushunchalarni yozish talab etilgan bo`lsa,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ikkinchi bir yondashuvda uzumning donalari shakllarida yozilgan birliklarni xronologik ketma – ketlikda o`quvchilardan joylashtirish kabi talabni qo`yish mumkin.

“UZUM PISHDI,BOG`GA KIR”O`YINI.



https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Adib ijodini metodlar va texnologiyalardan tashqari yondashuvlar asosida ham tadqiq etish mumkin. Bu yondashuvlar biografik hamda ijtimoiy – sotsial yondashuvlar asosida. Biografik yondashuv – ijodkorning hayoti, faoliyati, muhim voqealari, tajribalari va shaxsiy xususiyatlarini o`rganish orqali uning ijodini, xarakterini yoki psixologik holatini tahlil qilish usuli bo`lib, unda ijodkorning shaxsi hamda uning yaratgan asarlari, qahramonlari bir – biridan ajratilmaydi. Hayot haqiqati badiiy haqiqatga aylantiriladi.[1] Masalan, ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko`ra, fransuz adibi Antuan de Sent – Ekzuperi “Kichkina shahzoda” asaridagi bosh qahramonning atirgul bilan munosabati adibning ayoli Konsuello bilan murakkab muosabatlari biografik yondashuv asosida ochib berilgan. Ijtimoiy tahlil yondashuvi esa badiiy asarni u yaratgan davrdagi ijtimoiy hayot, siyosiy, diniy, falsafiy va davr

estetik qarashlar bilan uzviy aloqada o`rganiladi. Shunday yondashuv asosida asarni tahlil qiladigan bo`lsak, matn o`z davrining muhitiga moslashtiriladi va shu asosida muallif aytmoqchi bo`lgan fikr anglashiladi. XX asr o`zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lponning “Ko`saklar” she`rini ijtimoiy metod orqali tahlilini ko`rib o`tsak.

Diydirab yotarkan yerda ko`saklar,

Nomard changaliga tushgan ko`saklar.

Behisob ko`saklar butun o`lkada,

Shu qishga o`xshagan qora o`lkada.[2.3-6]

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Cho`lpon ushbu she`rida ramziy ma`no kasb etgan so`zlardan unumli foydalanadi. Masalan, ko`saklar- milliy qadryatlarimiz yoki xalqimiz, nomardlar deb mustamlakachilarni nazarda tutadi, qishga o`xshaydi – qish sovuq va u kelishidan oldin hamma yashillikni vayron qiladi. Qora o`lka – qiyinchiliklardan tinkasi qurigan avom xalq. Bu birliklar Cho`lpon yashagan davr muhitini ochib berishga harakat qilgan. Abdulla Oripov ijodi ham Cho`lpon hayotidan deyarli farq qilmaydi. Demak, Abdulla akaning ijodini asosan biografik hamda ijtimoiy yondashuvga solish orqali ijodkorni o`zimiz uchun ochilmagan qirralarini kashf etishimiz mumkin. Demak, maqolamiz davomida asosan ushbu yondashuvlar asosida ijodkor hayoti va asarlarini tahlil qilib o`rganamiz.

Natijalar. A. Oripov hayoti va ijodini turli xil metod va yondashuvlar asosida tahlil etadigan bo`lsak, o`quvchi nafaqat o`sha davr muhiti, unda yashagan insonlar taqdiri, ularning ayanchli qismatlari, mustamlaka davlatning tayziq va qonli hokimyati, mehnat ostida qolgan xalqimizning yorug` kunlarga chiqishga bo`lgan intilishini biz va o`quvchilar qalban his eta boshlaydi. Bugun qadrsizlikka tomon ketayotgan ona tilimiz yoki vatan tushunchasini o`qish asnosida: “ Men yurtimga, tilimga nima qila olyapman?” – degan savolga javob izlay boshlaydi.

Muhokama va xulosa. Ijodkor hayot yo`li va ijodini biografik va ijtimoiy yondashuv asosida o`rganish orqali A. Oripovning mustaqillikkacha bo`lgan davri va undan keying ruhiy holatini anglay boshlaymiz. Adibning ayoli Xanifaxonim hamda qizlari Bibisora, Shoira Mustofoyeva bir necha teleko`rsatuv yoki gazetalarga bergan maqolalari orqali Abdulla Oripov yashagan davrni, ruhiy kechinmalari, ijod jarayonini yoritib berishga harakat qilishgan. Bir qarashda adibimizning hayoti osuda, rohat va farog`atga boydek tuyiladi, aslida ham shunday edimi? Abdulla akaning turmush o`rtog`i Xanifaxonim bu borada so`z yuritar ekan, dastlab, 1962 – yilda oila qurganliklari, o`sha vaqtda 17 yosh bo`lib, to`y yig`inlari “Yor-yor” filimidagidek yangicha shaklda bo`lganligi, ya`ni diniy shakldan cheklanganligi haqida ma`lumot beradi. To`y jarayonida o`sha davrning

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mohir qalamkashlari Sh. Xolmirzayev, N. Komilov, To`lqin aka ishtirok etganlari va Abdulla aka bu to`y oqshomida “Yozajakman” nomli she`rini o`qiganliklarini aytib o`tgan. Abdulla akaning “baxt yulduzi” hamisha ham charaqlayvermagan. Uning bir qancha ijodi (“Tillabaliqcha”, “Dorboz”)ga SSR hukumati tomonidan siyosiy tus berilib, taqib ostiga olingan. Bu jarayon 1968-yilda A. Qahor vafoti munosabati bilan uning shogirdi sifatida bu hol yanada jiddiy tus olgan. Bundan ko`rinadiki, adib hayoti bir tekis o`tmagan. Mana shunday tahlikali vaziyatda Abdullaning onasi Turdixol aya vafot etadi. Ijodkorning onasiga bag`ishlab yozgan she`ri bir yil davomida cho`ntagida asrab yuradi, matbuotda chop ettirilishiga yo`l qo`yilmadi. Shu muddatdan keyin u o`z ijod namunasini “Saodat” jurnalida bosib chiqarishga muvaffaq bo`ladi.

Shoir ijodi birgina taqiqlardan iborat bo`lmay, o`tgan asrning 88 – 89 - yillarida SSR hukumatining o`zbek tilini davlat tili sifatida yo`q qilish davriga ham to`g`ri kelgan desak, aslo xato qilmagan bo`lamiz. Nafaqat til , balki milliy an`ana va qadryatlarimiz ham SSR hukumati hamda yurtimizda ularga qulluq qilguvchi kishilar tomonidan yo`q qilishga qaratilgan harakatlar olib borilgan. Masalan, birgina Navro`z bayramini nishonlayotgan xalqimizning doshqozondagi sumalaklarini to`kib yuborib, milliyligimizga zarba berila boshlangan. Keyinchalik Abdulla domla bu jarayonlarni quyidagi satrlari orqali yod etadi:

Sen bizni kechir,ey Navro`zimiz,

G`aflatda chalg`idi ul kun ko`zimiz.

Yuzingga shapaloq tortib yubordik,

Sho`r paxta bosamiz bugun o`zimiz.

“O`tmishda qilgan xatolarimizni endi sho`rpaxta qo`yish orqali o`zimiz tuzatamiz”,-deya tilga oladi. Navro`z bizning azaliy odatlarimizdan biri ekanligini va 80-yillarga kelibgina vaziyat salgina yumshaganligi haqida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Zafar Xudoyberdiyev ma`lumot beradi. Ma`lumot

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

o`rnida hattoki o`zbek millatining gultoji hisoblangan ijodkori Alisher Navoiyning satrlariga murojaat qiladi:

Ey yuzing bog`i nasimida havoyi navro`z,

La`li tojing bo`lib ul bog`da bo`ston navro`z.

Zulfi ruxsor ila komimg`a meni yetkursang,

Har kuning qadr o`lubon, har kuning o`lsin navro`z.[3]

Urush yillari Abdulla Oripov hayotidagi navbattagi suronli davr bo`ldi. Shu yilibosmadan chiqqan “Salom bahor” she`ri uning qalamiga mansub bo`lmasa-da, tayziqlar ostida uning bo`yniga qo`yishga muvaffaq bo`lishadi. Bu kabi ma`lumotlar bilan yaqindan tanishar ekanmiz, mamlakatimiz orasida keng tarqalgan: “ Abdulla bir vaqtlar SSR diyorim deya she`r yozib, bugun O`zbekistonim deya jar solidi, aslida u soxtakordir”,- deguvchilar vaziyat qanday ekanligini bilmasdan, ijodkor ruhiyatini anglamasdan hukm qiladilar. Abdulla aka bunday vaziyatda o`z jonidan emas, yaqinlari hayotidan xavfsiragan. Chunki qizil imperiyaning qonli siyosati butun bir oilaning yostig`ini quritadigan darajada bo`lganligi barchamizga sir emas. O`sha davrlarda ijodkor o`g`liga sunnat to`y qilishi kerak edi, ammo zamona nozik bo`lganligi uchun ochiq – oydin o`tkzishga imkon bo`lmagan. Abdulla domla farzandining sunnat to`yini akasining o`g`il to`yiga qo`shib qilishga majbur bo`ladi. Xanifa ayaning ma`lumot berishicha, o`sha paytlarda hattoki marhumga janoza namozi o`qish ham taqiqlangan. Uning o`rniga doklat o`qigan holda dafn etilgan. O`zbekistonning o`sha vaqtdagi davlat rahbari Sh. Rashidov o`zi ijodga qiziqqanligi uchun hech kimga oshkor qilmasdan A. Oripovni himoyasi ostiga oladi. Ijodkorimiz hayoti faqatgina tayziqlardan iborat bo`lmay, o`z davrining yirik davlat arbobi Mixail Garbachyov yig`inlarida ishtirok etgan. Abdulla domlaning mashhur bir gapi bor: “Agar ijodkor yonida yangi she`rib o`lmasa, demak, u haqiqiy shoir emas”. O`zi ham bu shiorga doimo amal qilgan. Mustaqillikka erishish ostonasida yurtimizda juda katta o`zgarishlar sodir

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo`lgan. Ulardan biri O`zbekiston Respublikasi madhiyasini yaratish uchun tashlangan qadam. Bu kabi mas`uliyatli vazifa Abdulla domlaga: “ Shunchaki sen yozgin”,- deya tuhfa etilmagan. Balki ko`plab ijodkorlar kabi tanlovda Qo`ng`irtovlik taxallusi bilan ishtirok etib, mana shunday sharafli vazifani qo`lga kiritgan. Saralash jarayoni ham ikki yil davom etgan. Madhiya matni ham seldek paydo bo`lib qolmagan, balki uning ustida ancha muddat ish olib borishga to`g`ri kelgan. Hattoki Abdulla domla madhiya tarkibidagi olamni o`ziga qaratgan diyor jumlasi Mutal Burxonov bastalagan kuy notasiga tushmayotganligi uchun bu misrani olamni mahliyo aylagan diyor birligiga almashtirgan. Bu jumlani xillash oson kechmasdan, u : “Agar shu jumlamni moslay olsam, o`lsam ham armonim yo`q”,- deya ta`kidlagan. Mustaqillik ostonasida turgan paytda ham Abdulla akani ko`ra olmaydiganlar talay bo`lgan va u yozgan madhiya rad etilib, o`rniga boshqa ijodkorniki tasdiqlanganligi ig`vosini hamma yoqqa ovoza qilishadi. Abdulla akaning qizi Shoira opa bu haqida : “Otam har Yangi yilni intiqlik bilan kutar, chunki agar madhiya yangilanmagan bo`lsa, otam tomonidan yozilgani yangrar edi. Otam buni eshitishi hamonoq ko`zlariga yosh olar edi”, - deb xotirlaydi. Mustaqillikdan keying yillarda ham u to`xtab qolmadi. Barakali ijod bilan band bo`ldi. Umrining oxirgi yetti yilini uyda o`tkazadi- ijoddan, do`stlar davrasidan uzoqda. Boisi u O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan bo`shatilgan edi. Bu davr Abdulla aka ruhiyatiga judda katta ta`sir qiladi. Chunki amaldan ketgandan so`ng ko`pchilik shoirlar va shogirdlar undan uzoqlashishdi. Mana shu vaziyat adibni hayot haqiqatini tahlil qilishga undaydi. Bu holatni Abdulla aka quyidagi satrlarga muhrlaydi:

Quduq qazdim suv tanqis damlar,

Ershdim ham balki yutuqqa.

Cho`ktirdilar lekin odamlar,

O`zim qazgan o`sha quduqqa.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Shu o`rinda Abdulla akaning yana bir meroslaridan biri “Tilla baliqcha” she`rini tahlil qilsak:

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni,

Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.

Tashlandiq ushshoq yeb o`tadi kuni,

Xor-u xas, xazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda ko`rgani shu tor hovuzcha

Va gavjum tollarning achchiq xazoni.

Menga alam qilar, tilla baliqcha

Bir ko`lmak hovuz deb bilar dunyoni…

Bu she`ri orqali ijodkor SSR davridagi tuzumni loyqa suvga, baliq esa o`z yurtida tashlandiq hayot kechirishga mahkum etilgan va shu hayotni ideal deya tasavvur etayotgan insonlar hayotini aks ettirib berganligiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Umrining so`ngi yillarida Abdulla aka xastalikka chalinadi. Shoira opa bu vaziyatni: “ Otamni ko`rsatmagan tabibimiz va shifokorimiz qolmadi, hattoki Amerikadan ham o`z sohasining yetuk mutaxassisini taklif etdik. U otamga tashxis qo`yar ekan, uning davosi faqtgina ijod olamiga qaytish ekanligini, butun dardlar qo`l orqali qog`ozlarda aks etgandagina darddan forig` bo`lishi mumkinligini aytdi”,- deya fikrini yakunlaydi. Shu o`rinda Halima Xudoyberdiyeva “Shunchaki” deya nom olgan ijodida: “Shunchaki yozmoq bu shoirga o`lim” jumlasini oladigan bo`lsak, Abdulla aka uchun shunchaki yozish u yoqda tursin, yoza olmaslik o`lim bo`lib tatidi. Uning mustaqillikdan keying ijodi ham miqdor va sifat jihatdan salmoqli bo`lib, ijodkor bu merosni to`laqonli kitobxonga yetib borishini xohladi. Bu uning so`ngi dil nidosi bo`lib qoldi. O`zbek millatining serqirra ijodkori 2016–yil beshinchi noyabrda 76 yoshda Amerikada vafot etdi. U vafotidan oldin

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qashqadaryoga ota- onasi mozori oldiga “Toyloq” qabristoniga dafn etishlarini vasiyat qilgan edi. Ammo shoirni Toshkentga Chig`atoy qabristoniga dafn etishadi. Qashqadaryoda adibning uyi uning muxlislari uchun uy muzeyiga aylantirildi. Xanifa aya turmush o`rtog`ining ijod namunalaridan ma`lum qismini kutubxona va muzeylarga topshirganligi, ammo qo`lida undan ham ko`p hali kitobxonga yetib bormagan ijodi borligini va umri nihoya topgunga qadar ularni yillar bo`yicha tartiblab, Abdulla akaning so`ngi nidosini kelajak avlodga yetib borishini xohlaydi. Hozirda adibning qizlari tmonidan Abdulla domlaning ijodi ijtimoiy tarmoqlar orqali muxlislarga yetkazib turilibdi. Bugun O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonivich Mirziyoyev ijodkorni: “Abdullajon menga yetishmayapti”,- deya xotirlashi ham Abdulla aka ijodiga berilgan eng katta baho bo`lib xizmat qilmoqda. “So`ngi so`z o`rnida – bir so`z”,- deganlaridek Abdulla aka ijodini yaqindan ochib berishda turli metod va yondashuvlarning o`rni beqiyos. Muhokama qismida aks etgan adib hayoti va ijodi bilan biografik – ijtimoiy yondashuv asosida tahlil qilish orqali ijodkor ruhi, o`y – kechinmalarini ijodida aks etishiga guvoh bo`lishimiz mumkin. Biz ustozlar va kelajak avlod Abdulla Oripov ijodi bilan tanishish jarayonida uning his – tuyg`usini his etar ekanmiz, albatta, Abdulla akaning nidolari nafaqat Qashqadaryoning, balki butun O`zbekistonning tog`laridan oshib, kitobxonni so`z gavharining nozik injularidan bahramand etishdan aslo to`xtamaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Navoiy. Hayrat ul-abror. -T.: G‘ofur G‘ulom, 2006.
2. M.Abdunazarova Abdulla Oripov she’riyatida tabiat lirikasi. // International Scientific and Practical conference. 2022.
3. O.Sharafiddinov.Ijodni anglash baxti. – T: “ShARQ”, 2005.
4. D Quronov .Adabiyotshunoslikka kirish. – T: “Hayot” 2002 .

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

5. R.Tillayeva Badiiy asar matnini tahlil qilish metodologiyasi. / Academic research in educational sciences. 2024. -381390

6. Z. Mirzayeva, K. Jalilov.10-sinf adabiyot darsligi.-T “Oquv”-2022. 3-6.

7. Xurshid Davron.uz/ kutubxona sayti.